

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2023 Vol. 1 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev

Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova

Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Mardon Rahmatov, Mo'minjon Turdibekov, Nodira Alavutdinova, To'lqin Tog'ayev, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Shoirra Bobomurodova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Muhabbat Madaminova, G'af-forjon Rahmonov, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'y-xatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda ikki marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Devonu lug‘otit turk” da taom tayyorlash uchun zarur buyumlar nomlarini ifodalovchi leksik birliklar xususida.....4

Muhayyo Hakimova

O‘zbek tilida sinonimiya munosabatining zamonaviy talqinlari.....16

Болат Қалыбеков

Қазақ терминологиясының кейбір өзекті мәселелері.....31

Марина Инамова

Принципы составления и подачи дидактических иллюстрированных параметров при составлении двуязычного учебного фразеологического словаря (на основе английского и русского языков).....52

Muhabbat Madaminova

Pragmatik lingvistikaning shakllanishi va matnning lingvopragmatik tadqiqi...64

Uktam Shamsiyev, Manzura Shamsiyeva

Психолингвистический анализ социализации ребенка.....75

Kamola Rixsiyeva

“Qar=” asosidan shakllangan ot leksemalarning tarixiy-etimologik tahlili.....86

Iqbol O‘razova

“Harakat” semali frazemalarning semantik tahlili (XIV asrning ikkinchi yarmi manbalari asosida).....97

Nodira Alavutdinova

O‘quv filmlari vositasida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirish.....108

Rohila Abdullayeva

V. Fon Gumboldtning til va xarakter uyg‘unligiga oid qarashlari.....116

Ziyoda Kasimova

“O‘tkan kunlar” asaridagi kiyim-kechakni ifodalovchi realiyalar tahlili.....125

Zarina Muzaffarova

Milliy ruhiyat ifodasida metaforaning o‘rni.....131

Umida Jalilova

The role of linguoculture in the linguistic studies.....138

Xusan Minavarov

O‘zbek tilshunosligida sud terminologiyasi.....147

Aziza Rahmonova

Sun‘iy intellektni takomillashtirishda parallel korpusning o‘rni.....153

Munisa Abduazizova

Frazemalarni etimologik asosiga ko‘ra tasniflash masalasi va ularning shakllanish omillari.....163

“Harakat” semali frazemalarning semantik tahlili (XIV asrning ikkinchi yarmi manbalari asosida)

Iqbol O‘razova¹

Abstrakt

Frazemalar tilning o‘ziga xos birliklari bo‘lib, u til egasiga ajdodlaridan so‘zlar kabi o‘zlashadi. Frazemalar axborot tashish, tushuncha va obrazli ifodalarni anglatish bilan birgalikda shu millatga xos bo‘lgan milliy belgilarni jamlash va o‘z semantikasida saqlash, ayni sema bilan til egasi nutqiga kirib borish bilan xarakterlidirki, bu frazemada ifodalangan milliy o‘ziga xoslikni faqatgina til egasi anglay oladi. Til muntazam o‘zgarish va taraqqiyotda ekan, uning lug‘aviy birligi sanalgan frazemalarda ham bu o‘zgarish o‘z in‘ikosini topishi tayin. Frazemalarning davriy jihatdan o‘rganilishi ma‘lum frazemaning shakllanishi va semantik taraqqiyotini, etimologiyasini aniqlash bilan birga shu davr tili va qadriyatlarini, insonlarning dunyoqarashi, olamni anglashi haqidagi muhim xulosalarning yuzaga chiqishiga turtki bo‘ladi. Shu ma‘noda, ushbu maqolada XIV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”, “Suhayl va Guldursun” asarlarida qo‘llangan “harakat” semali frazemalar tahliliga tortildi. Frazemalar maydon nazariyasi asosida o‘rganilib, “nutq” semali, “yumush” semali, “kuch” semali frazeosemantik mikroguruhlarda tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *frazema, sema, semema, gradatsiya, farqlovchi sema, ironiya.*

KIRISH

Harakat-holat bildiruvchi so‘zlar nutqda ilk paydo bo‘lgan muloqot birliklaridir. Bilamizki, “fe’llarning uyushtiruvchilik xususiyati kuchli bo‘lib, ko‘pincha boshqa so‘zlarni o‘ziga ergashtirib, uni boshqarib keladi” [Tursunov, 1992, 316]. Fe’llarning bu xususiyati grammatik tayanch komponenti fe‘l bilan ifodalangan frazemalarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Fe’llardagi nutq elementlarining

¹O‘razova Iqbol Abdikarimovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi.

E-pochta: orazovaiqbola@gmail.com

Iqtibos uchun: O‘razova, I.A. “Harakat” semali frazelarning semantik tahlili (XIV asrning ikkinchi yarmi manbalari asosida)”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2023/1 (1): 97-107.

birlashtiruvchilik xususiyati eski o'zbek tilida frazemalarning asosiy qismini fe'l frazemalar tashkil qilishini ta'minlagan. XIV asr manbalaridagi 85 foiz frazemalarda fe'l grammatik tayanch komponent vazifasini bajargan. To'plangan lisoniy materiallar harakat-holatni ifodalovchi fe'l leksemalarning frazeologik faolligi juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Fe'l frazemalar semantik jihatdan ikki xil ma'noni izohlashga qaratilgan: 1. Harakat bildiruvchi frazemalar. 2. Holat bildiruvchi frazemalar.

Shuni qayd etish mumkinki, harakat ma'nosini ifodalagan fe'llar doim ham harakat bildiruvchi frazemalarni shakllantirmagan. Harakat fe'llari orqali holat mazmuni ifodalangan frazemalar manbalarda faoldir. Chunki mavhum tushunchani aniq, real voqelik bilan tasvirlash tushunishni osonlashtiradi va fikrni teranroq anglashga yordam beradi. Masalan: *el uzat*= frazemesi harakat ma'nosini anglatgan erkin birikmaning frazemalashuvidan shakllangan bo'lib, "tilanmoq" ma'nosini, *el juv*= frazemesi esa "voz kechmoq", "umid uzmoq" ma'nolarini anglatib, holat frazemalarini hosil qilgan.

ADABIYOTLAR TAVSIFI

Frazemalar o'zbek tilshunosligida dastlab V.Vinogradov tomonidan semantik xususiyatlari jihatidan frazeologik chatishma, frazeologik birlashma va frazeologik qo'shilmaga bo'lib o'rganilgan [Rahmatullayev, 1955; Pinxasov, 1969, 48; Umarov 1971. 9-12. Mirzayev, 1978, 44-45]. E.Umarov "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida uchraydigan frazemalarni ham yuqoridagi tasnif asosida tadqiq qiladi. Shuningdek, olim to'plamda qo'llangan frazeologik birliklarni umumturkiy va o'zlashma iboralarga ajratgan [Umarov, 1971. 15-17.]. Keyinchalik A.Hojiyev bu tasnifni inkor etib, frazemalarni guruhlash ma'qul emasligini ta'kidlaydi [Shoadburahmonov, Hojiyev, 1980, 142.].

Sh.Rahmatullayev frazemalardagi ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, variatsiya, antonimiya, shakldoshlik hodisalariga diqqat qaratib, muammoni o'ttiz mingdan ortiq kartochkalar tahlili asosida ochib beradi [Rahmatullayev, 1966.]. Olim boshlab bergan bu semantik munosabatga asoslangan tasnif sinonim frazemalar haqidagi monografik tadqiqotga asos bo'lgan [Vafoyeva, 2009.]. Shu o'rinda frazemalarning polisemantik, omonimlik xususiyati o'z tadqiqini kutayotgan muhim muammolardan biri ekanligini ta'kidlaymiz.

METOD VA METODOLOGIYASI

Keyingi davr tadqiqotchilari tomonidan leksemalarga

nisbatan qoʻllanuvchi maydon va semantik mikromaydon tushunchalarini frazemalarga nisbatan tatbiq qilinishi frazeologik birliklarga semantik jihatdan yangicha aspektda yondashish imkonini berdi. “Til (mazmuniy) mundarijasini maydon metodi bilan oʻrganish eng samarali va qulay metodlardan biri boʻlib qoldi” [Iskandarova, 1999, 61.]. Hozirda frazemalarni semantik tahlil qilishda aksariyat tadqiqotchilar maydon metodini afzal koʻrmoqda, chunki frazemalarning semantik tabiati ham leksemalarga oʻxshashdir. Ushbu maqolada frazemalarni leksik-semantik va funksional-semantik maydonlarga ajratishda oppozitiv, komponent tahlil hamda matniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

HARAKAT BILDIRUVCHI FRAZEMALARNING SEMANTIK TAHLILI

Harakat bildiruvchi frazemalarning aksariyati erkin birikmalarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishidan hosil boʻlib, frazemalar jamiyatdagi maʼlum bir urf-odat, anʼana, qadriyatlar asosida shakllangan. Misollarga eʼtibor qaratsak, yuqori darajali mansabdorga kishilarning hurmat koʻrsatish maqsadida qilgan harakatlari natijasida yuzaga kelgan *jer öp*= frazemesi “taʼzim qilmoq”, “hurmat koʻrsatmoq” **maʼnolarini**, *jüz, köz öpüş*= frazemesi esa “xayrlashmoq” maʼnolarini bildiradi va xayrlashuv paytida bajariladigan xatti-harakatlar asosida shakllangan.

Asarlarda qoʻllangan harakat bildiruvchi frazemalar obrazlarning maʼlum bir faoliyatini, jismoniy harakat-holatini, maqsadini, baʼzan esa tashqi tomondan aks etgan ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan. Harakat bildiruvchi frazemalarni quyidagi mikromaydonlarga birlashtirish mumkin:

“Nutq” semali frazeosemantik guruh. Nutqiy faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan frazemalar inson nutqining bosqichlarini, ijobiy yoki salbiy tomonini boʻrttirib ifodalash, ruhiy holatning nutqiy faoliyatda aks etishini, axborot tashish funksiyasini oʻzida mujassam etadi. Masalan, *söz ač*=, *başarat ketür*=, *lafur*=, *til uzat*=, *tilinä ketür*=, *tilini tij*, *tilim evrilmä*, *tilni saqla*, *däm ura bilmä*, *mädh oqi*, *jüzinä tahsîn qil*, *el tilinä tüş*, *ortaya ketür*, *naʼra ur*, *boyzän jirt*, *yiři qop* kabi frazemalar kategorial maʼnosi (jarayonlik) va denotativ maʼnosiga (nutqiy faoliyat) koʻra bir frazeologik-semantik guruhga birlashadi, aksiologik (baho) yoki gradatsion maʼnolar asosida farqlanadi. Ayrim oʻrinlarda frazemada mavjud boʻlgan qoʻshimcha semalar, uslubiy maʼnolar ham farqlovchi sema vazifasini oʻtaydi. Masalan, nutq bosqichini anglatuvchi *söz ač*= [*Oturub, har bir babdan söz ačib sözlädim taqrib bilän (GT, 191).*] frazemesi biror mavzuga

oid nutqning boshlanishini ijobiy sema orqali ifodalasa, *til uzat*= frazemasida *gap kovlamoq* ma'nosini anglatib, nutqning boshlanish bosqichini salbiy sema orqali aks ettiradi; *başarat ketür*= frazemasida "xabar olib kelmoq" ma'nosini ifodalab [*Noşirvani adilga bir kişi kelib başarat ketürdikim (GT, 204).*], nutqning axborot tashish vazifasini ochib bersa, *tilinä ketür*= frazemasida axborot berish bilan birga, haqiqatni "qo'rqmasdan aytmoq" qo'shimcha semalarni ham o'zida mujassam qiladi: *Här kim žandın el juvyan, ne kim köñüldä bolsa, tilinä ketürgäj (GT, 173)*; *ortaya ketür*= frazemasida axborot tashish vazifasi bilan birga "fosh qilmoq, bor aybini aytmoq" semalarini ifodalash orqali yuqoridagi ikki frazemadan farqlanadi.

Tilini tij-, *tilim evrilmä*-, *tilni saqla*-, *däm ura bilmä*= frazemalari uchun "gapirmaslik" ma'nosi umumiy bo'lsa-da, nutqiy vaziyat va baho semasi bu birliklar uchun farqlovchi sema vazifasini bajaradi. *tilini tij*= frazemasida salbiy sema mavjudligi, *tilim evrilmä*= birligida ruhiy holat sabab biror so'z ayta olmaslik, tildan qolish, *däm ura bilmä*= frazemasida qo'rquv sabab gapira olmay qolgan qahramon holati aks etgan.

Laf ur-, *mädh oqi*-, *jüzinä tahsın qıl*= frazemalar uchun "bo'rttirib gapirish" semasi umumiy sanalsa-da, *lafur*= frazemasidagi salbiy sema "yolg'on" ma'nosini ham shakllantiradi. *Mädh oqi*-, *jüzinä tahsın qıl*= frazemalaridagi ijobiy sema "maqtamoq" ma'nosini hosil qiladi va bu ikki frazema daraja semasi orqali farqlanadi.

"Baqirmoq" semasiga ega bo'lgan *na'ra ur*-, *boyzın jirt*-, *yıri qop*= frazemalari uchun farqlovchi sema gradatsion ma'no bo'lib, ovoz belgisiga ko'ra darajalanishni hosil qiladi. *boyzın jirt*= frazemasida "baqirmoq" ma'nosini anglatib, boshlang'ich darajani, *na'ra ur*= frazemasida esa "hayqirmoq" ma'nosini ifodalab, o'rta darajani, "yıri qop" frazemasida esa yuqori darajani anglatadi.

Insoniyat orasida kishiga baho berish, kishini yaqindan bilishda, avvalo, uning nutqiy muomala madaniyatidan kelib yondashilgan. Asarlarda ham obrazlarning xarakterini ochishda qahramonning nutqiy layoqatiga qarab baho beruvchi *sözi tatlı*, *sözi bal*, **ači sözli**, **tili uzun** frazemalaridan foydalanilgan. Yusuf xos Hojib ushbu frazemalarning varianti sanalgan *tili uzun* (tili shirin), "*sözi uz*" (so'zi yoqimli), "*sözi yaqshi*" birliklaridan foydalangan. Ushbu frazemalar denotativ va kategorial semasiga ko'ra bir mikromaydonga birlashadi. Baho va daraja (gradatsiya) semalari frazeologik birliklar tabiatiga ko'ra farqlovchi yoki birlashtiruvchi sema vazifasini bajaradi. Jumladan, *sözi tatlı*, *sözi bal* frazemalari kategorial semasiga ko'ra "belgilik"ni, denotativ semasiga ko'ra

“nutqiy faoliyat”ni, baho semasiga ko‘ra “ijobiy” munosabatni ifodalaydi va har uchala sema mazkur frazemalar uchun integral (birlashtiruvchi) sema sanaladi. **Sözi tatli** va *sözi bal* birliklari o‘rtasidagi farqlovchi belgi gradatsiya bo‘lib, birinchisiga qaraganda, ikkinchi frazema belgining kuchliligini bildiradi hamda go‘zal muomala - madaniyatiga ega shaxs xarakterini bo‘rttirib ifodalash uchun qo‘llanib, “shirinso‘z” ma‘nosini anglatgan. Masalan: *Aniñ ortinča bir boji tal, sözi bal, sahibjamal qul bayışladi* (GT, 225).

Ushbu semalar bilan birgalikda matnda frazema yozuvchi mahoratidan kelib chiqqan holda turli uslubiy ma‘nolar bilan ham boyitilishi mumkin. **Sözi tatli** frazemasiga yozuvchi tomonidan uslubiy ma‘no yuklangan bo‘lib, matnda ironiyani ham ifodalaydi. Masalan:

Bir eǵgü adamiga bir jaman tilli kişi sökti:

Ol ajtti: “Ej sözi tatli, jüzi qutli, özi kamil,

Menim ‘ajbim ingan köbtür, meni mentek kişi bilmäs,

Meñä sen rast ajtiñ erurmen ‘ajbima qail” (GT, 203).

Yozuvchi frazemani shunday mahorat bilan qo‘llaganki, frazema oqil er tilida ijobiy” baho semasini ifodalasa-da, o‘quvchi asar matnidan kelib chiqib, frazema dagi baholovchi semani salbiy ma‘noda qabul qiladi. Garchi, obraz tilida ijobiy ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa-da, o‘quvchi ongida kontrast semani akslantiradi. Ushbu frazema sememasida uch xil sema mavjud: nomlovchi sema, baholovchi sema va uslubiy sema.

Ači sözli, tili uzun birliklari va yuqoridagi frazemalar uchun baho semasi differensial sema bo‘lib, *ači sözli*, frazemasini nutqiy muomala madaniyati past, insonlar bilan qo‘pol muomala qiluvchi kishining xarakterini tavsiflash uchun qo‘llangan va matnda “qo‘pol” ma‘nosini ifodalagan. Masalan: *...bir jigıtga anı ähdi nikah qıldilarkim, turş jüzli, ači sözli, jaman xulqlı edi* (GT, 282).

Bilamizki, polisemantik frazemalar tarkibidagi ma‘nolar ham xuddi leksemalarda bo‘lgani singari o‘ziga xos kontekstda, sintaktik qurshovda namoyon bo‘ladi. Polisemantik xarakterga ega bo‘lgan *tili uzun* frazemasini matnda ikki xil ma‘noni ifodalagan. Frazemaning dastlabki, ya‘ni bosh ma‘nosi xarakter ifodalovchi semema bo‘lib, “g‘iybatchi, betgachopar” ma‘nolarini ifodalagan: *Ej hajf bu husn va žämalina körä tili uzun dayı ädäbsiz bolmasa edi, ne xoş bolyaj edi* (GT, 261). Ikkinchi ma‘no denotativ ma‘nodan o‘sib chiqqan konnatativ frazesema bo‘lib, “hasadgo‘ylar uchun mavzu topildi” ma‘nosini aks ettiradi: *Dayı dünjanıñ hava va havasında elin qısqa qıldı. Anı körüb, hasudlarnıñ tili uzun boldı* (218). Har ikki semema

“noo‘rin tanqid qilish” semasi orqali birlashib turadi. Shuning uchun *tili uzun* frazemasi XIV asr frazeologiyasi uchun ikki sememaga ega bir til birligi hisoblanadi.

“Yumush” semali frazeosemantik guruh. Ushbu semantik guruh uchun “bajarish” ma‘nosi umumiy sema bo‘lib, frazemalar biror ish-harakatga bajaruvchining munosabatini, bajarish mahoratini ifodalash uchun qo‘llangan.

Asarlarda eng faol qo‘llangan frazemalardan biri *bel bayla*= frazemasi polisemantik xarakterdagi frazema bo‘lib, ikki xil ma‘noda kelgan. Dastlabki ma‘nosi “shay turmoq” semalarini ifodalab, biror harakatni bajarishga tayyorgarlik jarayonini anglatgan: *Anlar içindä bir taifa barkim, dajim xizmatqa bellärin baylab dayi käräm elin açib tururlar (GT, 303)*. Frazemaning yana bir ma‘nosi – harakatning boshlanish bosqichini ifodalab, semantik jihatdan “biror ishga astoydil kirishmoq”, “qunt bilan bajarmoq” ma‘nolarini anglatadi: *Men dayi alar bilän bel bayladim (GT, 272)*. Frazema shu ikkinchi ma‘nosi bilan *jerinä ketür=, qil jar=* frazemalari bilan bir sinonimik qatorga mansubdir; *jerinä ketür=, qil jar=* frazemalari uchun “bajarmoq” semasi umumiy denotativ ma‘no bo‘lib, daraja semasiga ko‘ra farqlanadi.

Jerinä ketür= frazemasi bajarmoq ma‘nosini ifodalab, asarda neytral ma‘noni anglatadi: *Nečuk boldikim xilafi va‘da qıldiñ dayi vafaniñ şartini jerinä ketürmädiñ? (GT, 290)* Ushbu frazema hozirgi o‘zbek tilida leksik qayta shakllangan holda *o‘rniga qo‘ymoq* variantida, o‘g‘uz lahjasida esa *erina qo‘ymoq, joyiya qo‘ymoq* variantlarida uchraydi va semantik jihatdan daraja semasi bilan kengaygan holda “ko‘ngildagidek, qoyil qilib, juda yaxshi bajarmoq” (O‘TIL, V, 165) ma‘nosini ifodalaydi.

Qiljar= frazemasi semantik jihatdan “mahorat bilan bajarmoq” ma‘nosini anglatib, asarda ikki o‘rinda uchraydi va har ikki o‘rinda ham yozish jarayoniga nisbatan qo‘llangan. Bizningcha, ushbu frazema shakllanishi yozish asbobi – qilning harakatlanishidan kelib chiqqan, ya‘ni qilning mahorat bilan ishlatilishi metonimik ko‘chimga uchrab, yorliq yozishni qoyillatishga ishora qiladi.

Här birigä žan bekin elgä jarar,

Olturub jaryu jazarda qil jarar (GT, 171).

Frazemaning yana bir ma‘nosi konnotativ ma‘nodan o‘sib chiqqan: “eplamoq”, “yo‘lini topmoq” ma‘nosida ham keladi.

Gär jesä qazi alib bartil (pora) sendän beš xijär (bodring),

On qavunluq ol saña hasil etarga qil jarar (GT, 325).

Bayt ma‘nosi: *qozi sendan pora olib besh bodringni esa, u sen*

uchun o‘n qovunlik foyda keltirish yo‘lini topadi.

Birinchi baytdagi frazema ma‘nosida “mahorat” semasi ustuvor sema sanalsa, ikkinchi baytdagi frazema semasida “uddaburonlik” semasi bosh sema sanalgan.

Ushbu frazema hozirgi o‘zbek tilida struktur va semantik tomondan o‘zgarishga uchragan. Frazema *qilni qirq yormoq* shaklida qo‘llanib, quyidagi ma‘nolarda keladi: “1. Sinchkovlik bilan tekshirmoq, yo‘lini, tadbirini, sababini topmoq. 2. Turlicha yoki o‘zi xohlaganicha talqin qila olmoq” (O‘TIL, V, 289). Frazemaning dastlabki ma‘nosi Sayfi Saroyi qo‘llagan “yo‘lini topmoq” ma‘nosiga mos kelsa, ikkinchi ma‘no semantik kengayish sabab tilning keyingi bosqichlarida yuzaga kelgan: *Yangi direktor ziyoli odam-da, qilni qirq yoraman deb, sizni shoshirib qo‘yayotgani yo‘qmi?* (“Qora ko‘zlar”).

Qo‘lidan kelmoq frazemasi asarlarda faqat inkor shaklda *qolundan kelmä=, elindän kelmä=* variantlarida qo‘llangan va “bajara olmaslik”, “eplay olmaslik”, “qila olmaslik” semalarini ifodalagan. Masalan: *Kelmäs böri elindän färväçilik (po‘stindo‘zlik) bilürsän (GT, 313).*

Išgä qoj= frazemasi “bandligini ta‘minlamoq”, “ish topishiga ko‘maklashmoq” ma‘nolarini anglatib, “bandlik” semasi ustuvorlik qiladi: *Surāti ħalin taqrİR qİldİM esa, bir muħtasar išgä qojdi (GT, 189).* Ushbu frazema amaldagi lug‘atlarda qayd etilmagan bo‘lsada, semantik ma‘nosini saqlagan holda *ishga qo‘ymoq, ishga solmoq* tarzida hozirgi o‘zbek shevalarida qo‘llanadi.

“Kuch” semali frazeosemantik guruh. Ushbu frazemalar faol jismoniy harakat asosiga qurilgan bo‘lib, semantik jihatdan ham harakatni ifodalashi bilan xarakterlidir. XIV asr manbalarida uchrovchi “kuch” semali frazemalar gender jihatdan xoslangan bo‘lib, erkaklarni sifatlash, erkak qahramonlarni ta‘riflash yoki ular bilan bog‘liq voqelikni ochib berish maqsadida qo‘llangan. Masalan, *ot ur=* frazemasi “shiddatli hujum qilmoq” ma‘nosini anglatib, daraja semasining mavjudligi frazemaning leksik sinonimlaridan ustunligini ko‘rsatadi: *Ej eränlär, jat čerikkä ot uruħ (GT, 175).* Yoki *pänžä tut=* frazemasi “kurashmoq” semasini, *jumruq ur=, jumruq jedür=* frazemalari esa “mushtlamoq” semasini ifodalab, bir umumiy mazmunni ya‘ni “kuch ishlatmoq” ma‘nosini anglatmoqda: *Arslan bilän pänžä tutmaq dayi qiličqa jumruq urmäq aqİllar İši degül (GT, 314).*

Jüz buz= frazemasi jismoniy harakat tufayli “zarar ko‘rish” semasini ifodalasa [*Ikki žahil qačan urush bašlar, Jüz buzarlar urub, jarİb bašlar (GT, 257).*], *özinä ček=* frazemasi “tortmoq”, “yaqinlashtirmoq” ma‘nosini anglatib, urish maqsadida o‘ziga

yaqinlashtirgan obrazning harakatini ochib berish uchun qo'llangan: *...jigit özinä çekib bir neçä mahkam jumruqlar jedürdi (GT, 251).*

Artina tüş= frazemasida "ta'qib qilmoq" semasini anglatib, asarda itga nisbatan qo'llangan: *Itlär artina tüşti (GT, 259)*. Ushbu frazema hozirgi o'zbek tilida leksik qayta shakllangan holda *iziga tushmoq*, o'zbek shevalarida *orqasidan tushmoq*, *ortidan tushmoq*, *orqasidan bormoq* shakllarida qo'llanib, "o'z yo'liga tushmoq, to'g'ri, maqbul yo'l kasb etmoq; 2. Ta'qib qilmoq; 3. Bir yomon ish qilish yo'liga tushmoq; payiga tushmoq" (O'TIL, II, 179) ma'nolarini ifodalaydi va aksar holda shaxsga nisbatan qo'llanadi.

Ayziñ širñ qil= frazemasida asarda "pora berish orqali tilini qisq qilmoq" ma'nolarini anglatib kelgan. Bugungi kunda ushbu frazemaning mavjud ma'nosi xiralashgan va nutqiy odat undovi sifatida tilda boshqa vazifa bajarishga xoslangan. Asarda ushbu frazemada salbiy sema mavjud bo'lsa, bugungi kunda ushbu frazema gender jihatdan xoslanib va ijobiy sema kasb qilib, mulozamat ko'rsatish, dasturxonga jalb qilish, shirinlik eyishga undash maqsadida ayollar nutqida ishlatiladi: *Oling, mehmon og'zingizni shirin qiling!* Bu frazema o'zbek xalqi etnografizmi sifatida baholanadi. To'ylarda quda tomonga mulozamat ko'rsatish, yaxshi niyat bildirish istagini ifoda etadi.

Harakat bildiruvchi frazemalarning aksariyati garchi lug'atlarda qo'llanmasa-da, o'zbek xalq shevalarining turli lahjalarida aynan yoki ayrim o'zgarishlar bilan iste'moldadir. Masalan, *bala tap*= frazemasida "tug'moq" [*...aqrabniñ bala tapqan jeri ma'lum degül (GT, 291)*] ma'nosida kelib, asarda insonga nisbatan qo'llanmagan bo'lsa-da, hozirgi Qashqadaryo shevasida ushbu frazema shaxsga nisbatan qo'llanib, ayni ma'no kasb qiladi: *Onang bola topdimi?*

Yoki *tiş batir*= frazemasida manbalarda "tishlamoq" ma'nosini anglatgan [*O'parda nagah o'jnab tiş batirdi (GT, 232)*.] va ayni shakl hamda ayni ma'noda shevalarimizda mavjuddir: *Tish botirib o'rganmasin, odatlanib qoladi.*

Jüzi üstünä tüş= frazemasida "ehtiyotsizlik", "kutilmaganlik", "yiqilmoq" semalari mavjud bo'lib, asarlarda *to'satdan yiqilmoq* ma'nosini ifodalagan hamda ayni ma'no va shaklda o'g'uz lahjasida qo'llanadi: *Sabr bilän bayda yora bişar, dayi aşıqqan kim ersa jüzi üstünä tüşär (GT, 312).*

Asarda hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydigan, ya'ni arxaiklashgan frazemalar ham mavjud, ular tasvirning yorqinligi, emotsiyaning kuchliligi, obrazlilikning ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Masalan, asarda jang maydoniga kirgan qahramonning

vajohatli tasviri va harakat-holati *temürdän tay bolsa, jerindän qapar=* frazeması bilan berilgan: *Oylan üsrük fil kebi mäjdana kirib, tasavvur ettikim, temürdän tay bolsa, jerindän qaparyajman (GT, 198)*. Yoki xonavayron bo‘lgan obraz tasvirini *jumšaq töšäkdän issi kül üstündä qal=* frazeması bilan berish orqali bor-budidan ayrilgan qahramon holatini real tasvirlashga erishilgan. *Varaqa sal=* (“xat yubormoq”), *jol çek=* (“yurmoq”), *elin etäkindin çek=* (“ajralmoq”, “uzoqlashmoq”) kabi ko‘plab frazemalar bugungi tilimizda saqlanmagan.

Harakat bildiruvchi aksariyat frazemalar transpozitsiya jarayonidan, ya‘ni erkin birikmalarning turli troplar yordamida ko‘chirilishidan hosil bo‘lgan. Frazeologik ma‘noni shakllantirishda eng faol ko‘chim sifatida metafora va metonimiyani qayd qilish mumkin. *elin elgä ur=* (“dod-voy qilmoq”), *jüz tut=* (“ma‘lum yo‘nalish tomonga qaramoq”), *elin kötär=* (“duoga qo‘l ochmoq”) frazemalari erkin birikmani metonimiya orqali ko‘chirish asosida shakllangan.

XULOSA

Manbalarda bir umumiy ma‘noni ifodalagan, bir semantik guruhga mansub frazemalar ko‘p uchraydi, ammo ular ijobiy yoki salbiy semasiga ko‘ra yoki ma‘noni ifodalashdagi gradual semaga ko‘ra farqlanib turadi.

Harakat semali frazemalar badiiy asarda obrazning ichki ruhiy holatini tashqi belgilar orqali obrazli ochishga xizmat qiladi. Muallif frazema orqali qahramon harakatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadiki, bu tasvir qahramon ruhiy olamidagi o‘zgarishni o‘quvchi ko‘z oldida yorqinroq gavalantiradi.

Manbalarda “nutq” semali, “kuch” semali, “yumush” semali harakat bildiruvchi frazemalar nisbatan faol qo‘llangan. Harakat bildiruvchi frazemalarning katta qismi transpozitsiya jarayoni mahsulidir. Troplarda metafora va metonimiya usuli faol hisoblanadi. Harakat bildiruvchi frazemalarning aksariyati aynan yoki o‘zgargan holatda adabiy til va shevalarda mavjud.

Adabiyotlar

- Хоразмий. 1987. Муҳаббатнома. Китобда: Муборак мактублар. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Сайфи Саройи. 1986. Гулистони бит-туркий. Китобда: Уч булбул гулшани. Тузувчи Н.Даврон. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Фозилов, Э. 1973. XIV аср Хоразм ёдномалари. Тошкент: Фан.
- Abdushukurov, B. 2020. *O‘zbek adabiy tili tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
- Маматов, А. 1999. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш

- масалалари. Филол. фан. докт...дисс. Тошкент.
- Турсунов, У. ва бошқалар. 1992. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи.
- Rahmatullayev, Sh. 2006. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Universitet.
- Раҳматуллаев, Ш. 1955. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. Тошкент.
- Пинхасов, Я. 1969. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи.
- Умаров, Э. 1971. Фразеологический словарь "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои. Тошкент: Фан.
- Шоабдурахмонов, Ш., Ҳожиев, А. ва б. 1980. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Тошкент.
- Раҳматуллаев, Ш. 1966. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик). Филол. фан. докт. ... дисс. Тошкент.
- Вафоева, М. 2009. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол. фан. номз...дисс. Тошкент.
- Искандарова, Ш. 1999. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. докт...дисс. Тошкент.

Semantic analysis of phrases like "action" (XIV century based on second half sources)

Iqbol Urazova¹

Abstract

Phrasemes are unique units of language that are inherited from the speaker like words from their ancestors. Phrasemes are characterized by conveying information, conveying concepts and figurative expressions, combining national symbols characteristic of this nation and keeping them in their semantics, and entering the speech of the native speaker with the same meaning that the national identity expressed in this idiom can only be understood by the native speaker. Since the language is constantly changing and developing, this change is bound to be reflected in the phrases that are its lexical unit. The periodic study of idioms, along with determining the formation and semantic development, etymology of a certain idiom, will lead to the emergence of important conclusions about the language and values of this period, people's worldview, understanding of the world. In this sense, in this article, the phrases like "action" used

¹Iqbol A. Urazova – Senior teacher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

For citation: Urazova, I.A. "Semantic analysis of phrases like "action". *Uzbekistan: language va culture. Linguistics*. 2023/1 (1): 97-107.

in the works “Muhabbatnama” by Khorezmi, “Gulistoni bit-turkiy” by Sayfi Saroi, and “Suhayl and Guldursun” created in the second half of the 14th century were analyzed. Phrasemes were studied on the basis of field theory and analyzed in phraseosemantic microgroups such as “speech”, “work” and “power”.

Keywords: *Phraseme, sema, semema, gradation, distinguishing sema, irony.*

References

- Abdushukurov, B. 2020. *History of the Uzbek literary language*. Tashkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
- Mamatov, A. 1999. *Problems of Uzbek phraseology formation*. Philol. science. doc...diss. Tashkent.
- Khorezmi. 1987. *Muhabbatnome*. In the book: Blessed letters. Tashkent: Adabiyot va san’at.
- Saifi Saroi. 1986. *Gulistoni bit-Turkiy*. In the book: Three Nightingale Gulshan. Compiled by N. Davron. Tashkent: Adabiyot va san’at.
- Fazilov, E. 1973. *Memoirs of Khorezm of the XIV century*. Tashkent: Fan.
- Rahmatullayev, Sh. 2006. *Contemporary Uzbek literary language*. Tashkent: University.
- Tursunov, U. and others. 1992. *Modern Uzbek literary language*. Tashkent: Teacher.
- Rahmatullayev, Sh. 2006. *Contemporary Uzbek literary language*. Tashkent: University.
- Rahmatullayev, Sh. 1955. *Basic meaning types of phraseological units*. Tashkent.
- Pinkhasov, Y. 1969. *Modern Uzbek literary language*. Tashkent: Teacher.
- Umarov, E. 1971. *Phraseological dictionary “Khazayin-ul-Maoni” Alishera Navoi*. Tashkent: Science.
- Shoabdurahmanov, Sh., Hojiev, A and others. 1980. *Modern Uzbek literary language*. Part 1. Tashkent.
- Rahmatullaev, Sh. 1966. *Some issues of Uzbek phraseology (Phraseological polysemy, synonymy, antonymy and homonymy)*. Philol. science. doc. ... diss. Tashkent.
- Vafoeva, M. 2009. *Phraseological synonyms in the Uzbek language and their structural-semantic analysis*. Philol. science. nomz...diss. Tashkent.
- Iskandarova, Sh. 1999. *Learning the lexicon of the Uzbek language as a meaningful field (personal microfield)*. Philol. science. doctor...diss. Tashkent.

O'quv filmlari vositasida yozma va og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish

Nodira Alavutdinova¹

Abstrakt

Bugungi kunda ona tilini o'qitish jarayonida yozma matn yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Matn yaratish usuli o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega. O'quvchining matn yaratish bo'yicha ko'nikma va malakalari nafaqat fanga oid nutq malakalarini shakllantiradi, balki uni shaxs sifatida rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, umumta'lim dasturiga kiritilgan barcha fanlarni o'zlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ona tili fani umumta'lim maktablarida o'qitiladigan asosiy fanlardan biri bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari, ma'lum tizimi, qonun-qoidalari mavjud. Shaxsni tarbiyalash, uning til madaniyatini shakllantirish va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'ziga xos mavqega ega. O'quvchining nutqiy kompetensiyasi uning yozma va og'zaki nutqi orqali namoyon bo'ladi. Albatta, tuzilgan nutq materialining sifati lingvistik materialni o'zlashtirish bilan ham bog'liq. Matn yaratish qobiliyati talaba rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib, bu jarayonni tashkil etish usuli an'anaviy darsni noan'anaviy darsga aylantirish vositasi bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: *ona tili, o'qitish metodikasi, nutqiy kompetensiya, matn, amaliyot, nutq, yozma nutq.*

Kirish

Respublikamizda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida ona tili fanining uzviyligini ta'minlash konsepsiyasi" qabul qilinishi natijasida ona tili ta'limi tizimida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu o'zgarishlar sifat o'zgarishlari bo'lib, maktab o'quvchisining yozma va og'zaki nutqiga qo'yilgan talablar bilan birga ularni amalga oshirish yo'llarini ham belgilab berdi. Shuningdek, mazkur konsepsiya asosida tuzilgan dastur va darsliklarda ta'limning uzviyligi va uzluksizligi masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratildi.

"Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi" 1965-yili YUNESKO forumi-

¹Alavutdinova Nodira Ganiyevna – O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

Iqtibos uchun: Alavutdinova, N. "O'quv filmlari vositasida yozma va og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*. 2023/1 (1):108-115.